

Sinf _____ Ism, familiya _____ Sana _____

1. Noto'g'ri fikrni aniqlang (bilish -2,5 ball).

A. Xotira - shaxsiy tajribaning to'planib borishi, esda saqlab qolinishi va qayta hosil qilinishidan iborat.



B. Aql-idrok bosh miyaning stvol qismi faoliyati bilan bog'liq

C. Shartli reflekslarning hosil bo'lishi va tormozlanishi odam bilan hayvonlarda o'xshash kechadi

D. Aql-idrok hodisalar o'rtasidagi bog'lanish qonuniyatlaridan yangi sharoitda foydalana olish qobiliyatidir

2. Ko'z shifokori bemorda rasmda tasvirlangan holatni aniqladi.

Shifokor bemorga qanday linzali ko'zoynak taqishni tavsiya etdi? (bilish -2,5 ball)



A) 1

B) 2

C) 3

D) 4

3. Ichki quloqda ... joylashgan (bilish -2,5 ball).

A) nog'ora parda

B) muvozanat organi

C) eshitish suyakchalari

D) Evstaxiy nayi

4. Ko'rish organida yorug'lik nurlari ko'rish retseptorlariga qanday ketmaketlikda o'tkaziladi? (qo'llash -4,5 ball)

1) gavhar

2) shox parda

3) qorachiq

4) tayoqchalar va kolbachalar

5) shishasimon tana

A) 2-3-1-5-4

B) 3-2-1-5-4

C) 2-3-1-4-5

D) 2-1-3-5-4

5. Ko'rish analizatoriga xos xususiyatlarni aniqlang (qo'llash -4,5 ball).

- 1) oqsil pardaning shaffof qismi sklera deyiladi..
- 2) yaqinni ko'radigan odamlada predmet tasviri sariq dog'ning orqasida hosil bo'ladi
- 3) tomirli pardaning oldingi qismi kamalak pardani hosil qiladi
- 4) ko'z gavharining xiralashuvi shabko'rlik deb ataladi.
- 5) tayoqchasimon hujayralar tungi ko'rish retseptorlari deyiladi.
- 6) ko'rish markazining o'rta qismida faqat kolbasimon hujayralar joylashgan.

A) 1,3,6

B) 3,4,6

C) 1,5,6

D) 1,2,5

6. Ko'rish organi qismlarini ularning xususiyatlari bilan muvofiqlashtiring (qo'llash -4,5 ball).

KO'Z QISMLARI	XUSUSIYATLARI
a) to'r parda	1) ko'zni mikroorganizmlar va begona moddalardan himoya qiladi
b) oqsil parda	2) oqsil pardaning old tomonidagi shaffof qismi
c) shox parda	3) tomirli pardaning old tomonidagi rangli qismi
d) kamalak parda	4) tayoqchasimon va kolbasimon hujayralardan iborat

A) a-4; b-1; c-3; d-2

B) a-1; b-4; c-2; d-3

C) a-4; b-1; c-2; d-3

D) a-3; b-1; c-2; d-4

7. Berilgan ro'yxatdan ichki quloqning qismlarini aniqlang (qo'llash -4,5 ball).

- 1) bolg'acha
- 2) yarimdoira kanalchalar
- 3) sandoncha
- 4) uzangicha
- 5) nog'ora parda
- 6) chig'anoq
- 7) eshitish retseptorlari

A) 1,3,4

B) 5,6,7


C) 2,5,7

D) 2,6,7

8. Rasmda ko'zning tuzilishi tasvirlangan (qo'llash -4,5 ball).

Ko'zning funksional qismi (a), unga mos raqam (b) va xususiyat (c) keltirilgan javob variantini aniqlang.

Javob varianti	Ko'z qismi	Raqam	Funksiyasi
----------------	------------	-------	------------




A	gavhar	11	akkomodatsiya xususiyatiga ega
B	to‘r parda	13	qon-tomirlarga ega qavat
C	shox parda	9	rang sezadigan retseptorlarga ega
D	kamalak parda	8	tomirli pardaning oldingi qismi

9. Rasmda odamning eshitish organi tuzilishi tasvirlangan.

Qaysi javobda rasmdagi raqamlarga mos ravishda quloqning funksional qismlari yozilgan? (qo‘llash -4,5 ball)

- A) 1- quloq suprasi; 2- tashqi eshituv yo‘li; 11-uzangicha
 B) 3- nog‘ora parda; 5- eshitish naychasi; 6- chig‘anoq
 C) 4- o‘rta quloq bo‘shlig‘i; 9- chig‘anoq; 11- sandoncha
 D) 6- chig‘anoq; 7-eshituv nervi; 12- sandoncha



10. Har bir to‘g‘ri ma’lumotga “Ha”, noto‘g‘ri ma’lumotga “Yo‘q” deb javob bering (tahlil va mulohaza – 5,5 ball).

- 1) oyparastlik va letargik uyqu kasallik hisoblanadi
- 2) to‘r pardaning ko‘rish nervlari chiqqan joyi - ko‘r dog‘da retseptorlar bo‘lmaydi.
- 3) vestibular apparat tana muvozanatini saqlash funksiyasini bajaradi
- 4) muvozanat analizatorining periferik qismi ichki quloqning chig‘anoq qismida joylashgan
- 5) hid bilish analizatorining markaziy qismi burun bo‘shlig‘ining shilimshiq qavatida joylashgan
- 6) narkotik uyqu har xil kimyoviy moddalar ta’sirida yuzaga keladi
- 7) eshitish analizatorining periferik qismi ichki quloqning oval xaltacha va uchta halqasimon naychalarida joylashgan.

- A) 1- ha; 2-ha; 3-ha; 4- yo‘q; 5- yo‘q; 6-ha; 7-yo‘q
 B) 1- ha; 2-ha; 3- yo‘q; 4- yo‘q; 5- yo‘q; 6-ha; 7-yo‘q
 C) 1- ha; 2-ha; 3- yo‘q; 4- yo‘q; 5- ha; 6-ha; 7-yo‘q
 D) 1- yo‘q; 2-ha; 3- yo‘q; 4- yo‘q; 5- ha; 6-yo‘q; 7-ha

Kalit:

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
bilish -2,5 ball	bilish -2,5 ball	bilish -2,5 ball	qo‘llash -4,5 ball	qo‘llash -4,5 ball	qo‘llash -4,5 ball	qo‘llash -4,5 ball	qo‘llash -4,5 ball	qo‘llash -4,5 ball	tahlil va mulohaza – 5,5 ball
B	B	B	A	B	C	D	D	B	A